



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

TIJORAT BANKLARI VA MOLIYA BOZORI

magistranti Ishmuhammedova Lola Xolmurodovna

Qarshi davlat universiteti

E-mail: lolaishmuhammedova@gmail.com

Tel: 99897315343

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasining xo'jaligiga integratsiyalashuvi, uning hududiy va global darajadagi raqobatbardoshligi, nisbiy afzalligini amalga oshirish moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishga chambarchas bog'liq. Chunki, xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi, xalqaro xo'jalik ishtirokchilaridan yuqori darajadagi milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini talab etadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, O'zbekiston o'z iqtisodiy siyosatida bank-moliya va sanoat tarmoqlari integratsiyasini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Tabiiyki, iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishda banklar va boshqa moliya tashkilotlarining ahamiyati juda katta.

Kalit so'zlar. Iqtisodchi mutaxassis, huquqiy-me'yoriy, ilmiy tadqiqot, iqtisodiy va ijtimoiy iqtisodiyot, soliq tizimi.

Аннотация

Интеграция Республики Узбекистан в мировое хозяйство, ее конкурентоспособность на региональном и глобальном уровнях, реализация сравнительных преимуществ тесно связаны с созданием финансово-промышленных групп и развитием их деятельности. Это обусловлено тем, что усиление международного разделения труда требует от участников международных экономических отношений высокого уровня конкурентоспособности национальной экономики. По вышеуказанным причинам Узбекистан в своей экономической политике уделяет большое внимание развитию интеграции банковско-финансового и промышленного секторов. Естественно, банки и другие финансовые учреждения играют важнейшую роль в ускорении экономического развития.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Ключевые слова: Ключевые слова: экономист, нормативно-правовые аспекты, научное исследование, экономическая и социальная экономика, налоговая система.

Abstract

Integration into the economy of the Republic of Uzbekistan, its competitiveness at the regional and global levels, and the realization of its relative advantage are closely related to the organization of financial and industrial groups and the development of their activities. Because the strengthening of the international division of labor requires a high level of competitiveness of the national economy from international economic participants. For the above reasons, Uzbekistan attaches great importance to the development of the integration of the banking, financial, and industrial sectors in its economic policy. Naturally, banks and other financial institutions play an important role in accelerating economic development.

Keywords: Economist specialist, legal and regulatory framework, scientific research, economic and social economics, tax system.

Kirish

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin Respublikamizda xalqimiz manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqgisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyati tug'ildi. Respublikamizning tashqi dunyodan bir asrdan ortiq vaqt mobaynida ajralib qolganligiga barham berildi. Shu bilan birga o'tish davrida chinakam iqtisodiy mustaqillikka erishish yo'lida bir qancha obyektiv qiyinchiliklar vujudga keldi. Bularni yengib o'tishda iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilmasini tubdan qayta qurish zarurati tug'ilgan edi. Respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash, korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, yuqori ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlarni rivojlantirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Mazkur masalani ijobiy hal qilish maqsadida moliya- sanoat guruhlarini shakllantirish lozim. Moliya- sanoat guruhlarida moliya kapitali bilan sanoat kapitali birlashishi nafaqat



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

investitsiya jarayonlari faollashishiga, balki iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat bank tizimining ikkinchi bo'g'ini bu tijorat banklaridir. Tijorat banklari davlatdagi bo'sh pul mablag'larini jalb qiladi. Jalb qilingan mablag'larni tegishli shartlar hisoblangan to'lovlilik, qaytarishlik, muddatlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik kabilar negizida iqtisodiyotning tarmoqlarida, jismoniy, yuridik shaxslarga to'lov hisob-kitoblarni amalga oshirishda xizmat ko'rsatadigan tijorat tashkiloti sifatida ta'riflanadi. Tijorat banklarining faoliyati asosan tijoratga asoslangan, banklarning asosiy faoliyati esa yuksak darajada daromad olishga qaratiladi.

1991-yilgi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun O'zbekistonda dastlabki tijorat banklarini tashkil etilishining huquqiy asosi bo'lib xizmat qilgan edi¹.

Tijorat banklari faoliyati boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bankning boshqaruv organi quyidagilar hisoblanadi: 1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi; 2. Bank Kengashi-kuzatuv kengashi; 3. Bank Boshqaruvi².

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini chiqarishni to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'ra, 1994-yil yakunlari bo'yicha Respublikamizda chiqarilgan jami aksiyalarning 78 foizi tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelgan eadi. 1995-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 474243 ming so'm miqdorda aksiyalar chiqarilgan va 405439 ming so'mlik aksiyalar joylashtirilgan (aksiyadorlar) tarkib topgan. Shuningdek, Fondi aksiyalardan tashkil topgan banklar aksiyadorlar jamiyati shaklida tashkillashtirildi. Bu esa davlatning banklarini xususiylashtirish jarayonini boshlanishiga sabab bo'ldi³.

1994-yil davomida tijorat banklari tomonidan 13 ta aksiyadorlar jamiyati tashkil etilgan bo'lsa ularning umumiy soni 18 nafarga yetdi. 1994-yilda 13 ta bankning umumiy summasi 99003,3 ming so'mlik aksiyalari chiqarilgan edi va 5 ta bankning 6,5 milliard so'mlik aksiyalari joylashtirilgan edi.

Shundan 90 foizdan ortiq miqdordagi imtiyozli aksiyalar jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan. 1994-yil qiymatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va

¹ O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. Mullajonov F. tahriri ostida. -T. "O'zbekiston" 2001, 78-bet.

² Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Pul va banklar. – T.: "Iqtisod-moliya", 2012. B-219.

³ Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari (1995-yil 1-yanvardagi holat). Bank axborotnomasi. T. 1995. №2. 1-b.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

rivojlantirish uchun ayniqsa qulay yil bo'lgan edi. Yil boshida fond bozorida ishtirok etgan 10 ta bankning hissadorlik sarmoyasi 99003,3 ming so'mdan iborat bo'lgan yil oxiriga kelib 14 nafar bankning bunday sarmoyasi shu ko'rsatkichga nisbatan qariyb 5 baravarga ortgan edi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 285-sonli "Toshkent" respublika fond birjasi faoliyatining samaradorligini ta'minlash va qiymatli qog'ozlar bozori infrastrukturasi rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qiymatli qog'ozlar bozori infrastrukturasi yanada takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni belgilab berdi. 1994-yil 24-dekabrda Markaziy bank Boshqaruvida tijorat banklarining vaksellarini, depozit (jamg'arma) sertifikatlarini va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit sertifikatlarini chiqarish va ular muomalasini tartibga soluvchi hujjatlarning majmui tasdiqlangan edi va bu qiymatli qog'ozlar bozorini sifat jihatdan kengaytirish uchun asos yaratib berdi.

Tijorat banklarining qarz olish va qarz berish bilan bog'liq qiymatli qog'ozlarini chiqarishi 1995-yil birinchi choragida birlashtirish "Turon banki", "Andijon bank"ning veksellarini, "O'zinvestbank", "O'zjamg'armabank", birlashtirish "Turon banki", "Andijon bank" va boshqalarning depozit sertifikatlarini chiqarish mo'ljallangan edi⁵.

Respublikamiz don va energetika mustaqilligini ta'minlashga erishdi, bu mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining haqiqiy mustaqilligining asosi bo'ldi. Bundan tashqari, respublikamiz uchun yangi bo'lgan tarmoqlarning asosi yaratildi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Asakadagi "O'zDEUavto" zavodi, Qizilqum fosforit zavodi va boshqalar ishga tushirildi.

Erkinlashtirishning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyot jarayonlari asrlar chegarasida, yangi asr bo'sg'asida mamlakatimizdagi barcha o'zgarishlarning asosiy negizi, bog'lovchi bo'g'ini bo'ldi⁶. Shu bilan birga O'zbekistonda iqtisodiy

⁴ Karaliyev T.M., Sayfiddinov I.F. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorati. – T.: 2019. 77-bet.

⁵ Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari (1995-yil 1-yanvardagi holat). Bank axborotnomasi. T. 1995. №2. 1-b.

⁶ Каримов И.А. "Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда: Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг биринчи қақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг XIV-сессиядаги маърузаси". 1999 йил 14 апрел. Т., "Ўзбекистон", 1999; Каримов И.А. "Бизнинг олий мақсадимиз Ватан мустақиллиги ва раванқи, халқимиз эркинлиги ва фаровонлиги: Иккинчи қақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 1 сессиясида сўзлаган нутқи". 2000 йил 22 январь. Т., Ўзбекистон, 2000.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

sohaning erkinlashuvi bevosita davlatning tartibga soluvchi rolining izchil qisqartirilishi

Tijorat banklarini bozor iqtisodiyoti uchun “Qon tomirlari” tizimi yoki “iqtisodiy taraqqiyot” generatori” deyish mumkin. Banklar omonat qabul qilib, kredit beradi, to‘lov hisob - kitoblari, valyuta operatsiyalari va investitsiyalarni boshqarish sohasida turli vazifalarni amalga oshirib keladi. Markaziy bank banklar o‘rtasidagi raqobatlashuvning umumiy qoidalarini aniq bajarilishini ta‘minlash va ularning xavfsizligi va ishonchliligiga ko‘maklashishi darkor. Banklardan birining kasodga uchrashi barcha banklarning osoyishta faoliyatiga xavf soladi.

Shuning uchun ham banklarga ruxsatnomalar berish juda muhim ahamiyatga molik. Bu ishda avvalo aholi mablag‘larini jalb etish va bank operatsiyalarini o‘tkazishda kimga ishonish hamda kimga ishonish mumkinmasligini aniqlab olish muhim bo‘ladi. SSSRning ko‘p hududlarida bank ochish boyishning eng oson yo‘li edi. Buning sababi, banklar faoliyatida qonunlarning nihoyatda mukammalligi amalda puli bor kishining bank ochishiga imkoniyat bergan edi. Nazorat organlarining esa bankning biznes - rejasini o‘rganish uchun vaqti g‘oyat cheklangan, muassislar to‘g‘risida zarur axborotni yig‘ish uchun esa vakolatlari yetarli emas. MDHdagi ayrim mamlakatlarda bank tizimining gurkirab o‘tib ketgan edi. Masalan, Rossiyada 1994-yilga qadar 3-4 yil ichida ikki mingdan ziyod tijorat banki, Qozog‘istonda 200 dan ortiq bank ro‘yxatga olingan bo‘lsada ulardan 30 foizdan ko‘prog‘i ish yuritishga noloyiq bo‘lib qolgan yoki o‘z faoliyatini tugatishga majbur bo‘lgan edi⁷.

Sog‘lom raqobat muhitining yaratilishi samarali bank menejmentining vujudga kelishiga ta‘sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy yangiliklar agentligi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar jarayonida tijorat banklari rahbar xodimlarining e‘tibori aynan mana shunga qaratildi⁸.

1995-yilda Respublika tijorat banklari bozorga jami 2843 million sumlik qimmatli qog‘oz chiqardilar, shularning yarmidan ko‘pi (1518,7 million sumligi) sotildi. Sotilgan barcha qimmatli qog‘ozlarning 70% veksellar ulushiga to‘g‘ri keladi.

⁷ Bank ochmoqchi bo‘lsangiz...Bank axborotnomasi. T. 1995. №3. 5-6 b.

⁸ Банкиры о банках. Итоги годового исследования. // Ж. “Рынок, деньги и кредит”, 1/2001.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Debitorlik qarzlarini uzish ko'lamini veksel muomalasi kengaytirilishining ijobiy natijasi ko'rsatkichi 8500 million so'mni tashkil etgan.

O'zbekistonda tijorat banklaridan tartibga solib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, aholi asosan banklarning imtiyozli aksiyasini (77%) sotib olgan. 1995-yilning birinchi choragi uchun "Paxtabank" hissadorlariga 30 foiz, "Andijonbank" - 50 foiz, "Namanganbank" - 52,7 foiz dividend to'lagan edi⁹.

Yetakchi mavqeni egallab turgan banklarning deyarli uchdan ikki qismi (o'z xodimlari timsolida) raqobatga hal qiluvchi ahamiyat bermadi. Shu bilan birga, bankirlarning yarmidan ko'pi nosog'lom raqobatdan himoyalash uchun qo'shimcha huquqiy hujjatlarni qabul qilish zarur deb hisobladi. Ayni paytda raqobat muhitini shakllantirish bank xizmatlari bozorining alohida segmentlari bo'yicha bir maromda amalga oshirilmadi.

Birinchi bosqichda xususiylashtirishga O'zR TIF Milliy banki va "Asakabank" tayyorlanadi. Keyingi bosqichda "Zaminbank" "O'ztadbirkorbank" "O'z uy-joyjamg'armabanki" banklarni xususiylashtirishga e'tabor kuchaydi. "Paxtabank" chet ellik sarmoyadorlarga qayta e'lon qilinadigan ustav fondining 40 foizigacha chegarasida yangi chiqarilgan aksiyalarni sotadi. Mazkur jarayon bank menejmentining ahvoriga bevosita kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham, bank sektorini isloh qilishning eng dolzarb muammolari ichida quyidagilar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq bank tizimini isloh qilish borasidagi mazkur chora - tadbirlar tijorat bankini boshqarishning ichki mazmunini o'zgartirishga qodir emas. Lekin ushbu ta'rif asosida banklarning barcha asosiy operatsiyalari bo'yicha ortiqcha formallashtirilgan tartiblar tuziladi. Pirovardida, bank ishida qayishqoqlik va tezkorlik elementlari yo'qotiladi. Mamlakatimiz tijorat banklarining ochiq tizimlar tamoyili bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'tishi bu bank ishi tarixining yangi sahifasi hisoblanadi¹⁰.

Aktivlarni boshqarish, uning yordamida bankning ko'zda tutilgan vaqtga mo'ljallangan siyosati bevosita amalga oshiriladi. Aktivlarni boshqarish, birinchi galda, bank balansining ishlatilishi saqlanib qolinganda, uning samarali

⁹ Bank axborotnomasi. 1995-yil 10-son. 8-b.

¹⁰ Тимоти У. Кох. Управление банком: пер. с англ. В 5-ти книгах. – Уфа, 1993; Банковское дело/ Под ред. О.И.Лаврушина. М., 1997.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

ishlashini ta'minlashga yo'naltirilgan jarayon tushuniladi. Aktivlarni boshqarishning amaliy usullari tegishli davrda bankning oldida turgan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Passivlarni boshqarish, u menejmentning bankda daromad keltirmaydigan mablag'larning bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan (majburiy zahiralar bundan mustasno) yo'nalishini o'zida namoyon qiladi.

Bank tomonidan chiqarilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash sohasidagi siyosat o'z sarmoyasini boshqarishning samarali vositasi sifatida ishtirok etadi. Dividendlarning oshirilishi aksiya narxining oshishini va, o'z navbatida, qo'shimcha aksiyalarni sotish hamda o'z sarmoyasini ko'paytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi.

Bank faoliyatida uchrab turadigan tavakkalchilikni boshqarish, u ko'pincha tavakkal - menejment deb nomlanadi. Bank menejmenti tizimiga mehnat jamoasini boshqarish ham kiradi. Bunda, chet el tajribasiga tayangan holda, odatda menejmentning ikkita modeli yaponcha va amerikacha modellari tahlil qilinadi. Agar ularning birinchisi bank faoliyatining yuqori yakuniy natijalariga erishishda jamoa rolining tan olinishiga tayansa, ikkinchisi esa, jamoaning butun faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynovchi shaxsga yo'naltirilgan. Tabiiyki, boshqaruvning butun tizimi ham farq qiladi, shu jumladan qarorlar qabul qilish, javobgarlik, nazoratni tashkil qilish, rahbariyatning qo'l ostidagilar bilan munosabatlari, mehnatga haq to'lash, ushbu boshqaruvning o'zini baholash, menejer kadrlarni tayyorlash kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т. Ўзбекистон, 2018. - Б.354.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т. Ўзбекистон, 2018. - Б.367.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т. Ўзбекистон, 2018. - Б.371.
4. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Т., "Ўзбекистон", 1995, 28-36, 267-270-б



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт каффолатлари. –Т., Ўзбекистон,” 1997, 24-25, 31 б
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3-жилдлик, 3 жилд.-Т., “Шарқ,” 2000. 328, 540-548 б
7. Алимов Х, Алимов А, Ахунова Г.Н. ва бошқ. Иқтисодчилар маскани. Тошкент, - “Шарқ”. – 2001. 192 б.
8. Ishmuhammedova L. O‘zbekistonda moliya siyosati va uning ijtimoiy iqtisodiy hayotga ta’siri.//Milliy Universitet Axborotnomasi//Toshkent-2024., 28-30
9. Ishmuhammedova L. Markaziy bankning Respublika Moliya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati// Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi-4/3-2025.Xiva-2025.,45-47 b
- 10.Йулдошев Қ., Муфтайдинов Қ. Иқтисодий билим асослари. Т., «Ўқитувчи», 1997.
- 11.Абулқосимов Ҳ.П., Жўраев Т.Т. Иқтисодчи олимлар. Т., «Фан ва технология», 2016.